

## GETEROMILLATLI OILALARDA TUG‘ILGAN SHAXSLARDA ETNIK IDENTIKLIK NAMOYON BO‘LISHINING EMPIRIK TADQIQ ETILISHI

Nuralieva Dildora Mamurjonovna  
 Farg‘ona davlat universiteti psixologiya  
 kafedrası psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa dokori (PhD).

## EMPIRICAL STUDY OF ETHNIC IDENTITY IN PERSONS BORN IN HETERO-NATIONAL FAMILIES

Nuralieva Dildora Mamurjonovna  
 FarDU Doctor of Philosophy in Psychology, (PhD).

## ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ЛИЦРОДИЛЬНЫХ В ГЕТЕРОНАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЬЯХ

Нуралиева Дилдора Мамуржоновна  
 доктор философии (PhD) по психологическим наукам ФарГУ

*Annotatsiya: Maqolada Turli xalqlarning etnomadaniy o‘ziga xosligini o‘rganish an‘anaviy ravishda shaxsning rivojlanishi va shakllanishini o‘rganish usullaridan biridir. Umuman olganda, etnik-madaniy o‘ziga xoslik yetarlicha o‘rganilmagan, garchi so‘nggi o‘ttiz yillikda u bir qator tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga tortgan bo‘lsa ham. Millatlararo nikohda tug‘ilgan bolalarda etnomadaniy o‘ziga xoslikni rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va qiyinchiliklari mavjud*

*Kalitso‘z: Etnikidentiklik, oila, millat, madaniyatlararo, gnrsologikyondashuv, madaniyatlararo, oila munosabatlari.*

*Abstract: In the article, the study of the ethno-cultural identity of different peoples is traditionally one of the methods of studying the development and formation of the individual. In general, ethno-cultural identity is understudied, although it has attracted the attention of a number of researchers in the last three decades. Children born in inter-ethnic marriages have specific psychological characteristics and difficulties in developing ethno-cultural identity.*

*Key word: Ethnic identity, family, nation, intercultural, gender approach, intercultural, family relations.*

*Аннотация: В статье изучение этнокультурной идентичности разных народов традиционно является одним из методов изучения развития и становления личности. В целом этнокультурная идентичность малоизучена, хотя и привлекала к себе внимание ряда исследователей в последние три десятилетия. Дети, рожденные в межнациональных браках, имеют специфические психологические особенности и трудности формирования этнокультурной идентичности.*

*Ключевые слова: Этническая идентичность, семья, нация, межкультурный, гендерный подход, межкультурные, семейные отношения.*

Etnopsixologiyada tarixan tadqiqot olib borishning 2 ta yondashuvi mavjud: etnologik psixologiya (yoki psixo-antropologiya) va madaniyatlararo (qiyosiy madaniyat psixologiyasi). Birinchi yondashuv mazmuniga ko‘ra, bitta madaniyat tashuvchilarning ruhiy xususiyatlarini o‘rganishda madaniyatga xos tahlil birliklari va atamalar qo‘llaniladi. O‘rganilayotgan hodisa asta-sekin ochiladi, mazkur jarayonda tadqiqotchi diniy guruhga qo‘shilishi, o‘z xatti-harakati va odatlarini qayta qurishi, uning a‘zosi bo‘lishi kerak mazmunidagi gipotezalar mumkin emas:

Ikkinchi yondashuv mazmuniga binoan, madaniyatlararo farqlar va o‘xshashliklarni tushuntirish istagi bilan ikki yoki bir nechta etnik guruh shaxslarining psixologik hayotini o‘rganish, tahlil birliklaridan foydalanish, o‘zga madaniyat ta‘siridan ozod deb hisoblanadi. Tadqiqotchining o‘rganilayotgan etnik guruhlardan uzoqlashish istagi bilan tashqi kuzatuvchi pozitsiyasini egallashi, tadqiqotning psixometodologik strukturasi va uni tavsiflash uchun toifasini dastlabki qurish, gipotezalarni ilgari surish mumkin. Tadqiqot turli sohalar doirasida amalga oshiriladi: umumiy psixoidrok, xotira va fikrlash xususiyatlarini o‘rganadi, mehnatni tashkil etish va boshqarishning sanoat psixo-muammolari, yosh psixo- turli xalqlar orasida idrok usullari, ijtimoiy psixologik turli etnik jamoalarga kiruvchi kishilar xulq-atvorining ma‘lum qonuniyatlarini o‘rganadi, bu jamoalarning psixologik xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Odatda etnopsixologik tadqiqotlar amaliy ehtiyojlar

bilan belgilanadi. Olimlarning ko'pyillik izlanishlari asosida etnopsixologik tadqiqotlarning quyidagi turlari mavjudligi aniqlangan. 1 - standart - dastlab madaniyatlararo taqqoslashni o'z ichiga olmaydi. Obyekt, milliy ong yoki o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar va yo'nalishlar, ehtiyoj va motivlar; avto-va getero-stereotiplarning o'ziga xos xususiyatlari, etnik munosabatlar, an'analar, odatlar va urf-odatlar, muayyan millat va elat vakillarining xulq-atvorining o'ziga xosligi kabilar bo'ladi.

2- madaniyatlararo - turli millatlarga mansub odamlarning bir nechta guruhlarida yoki turli millat vakillari bir joyga to'plangan guruhlarda parallel ravishda olib boriladigan shaxslarning psixologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini o'rganish.

3- tarixiy va gnoseologik yondashuv – millatlarning kelib chiqishini tarixiy tahlil, kontent tahlili, omil tahlili va boshqa tadqiqotlarda turli ma'lumotlarni umumlashtirish va boshqa usullar yordamida o'rganish. U ma'lum bir millat vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishning iloji bo'lmaganda qo'llaniladi (tarixiy, siyosiy, arxiv manbalarini tahlil qilish). Etnopsixologik tadqiqotlarni olib borishda tadqiqotchi tomonidan bir nechta etikaviy-axloqiy, konfidensiallik tamoyillariga amal qilish tadqiqot natijalarining ishonchli chiqishini kafolatlashga xizmat qiladi. Xususan, dastlabki etnopsixologik etikaviy tamoyilga ko'ra, etnik jamoa shakllanishi va uning psixologiyasining turli omillarini hisobga olish - milliy ruhiyatni tarix, iqtisod, siyosiy va madaniy rivojlanish mahsuli sifatida va bu etnik jamoa uzoq vaqt yashaydigan boshqa sharoitlarni o'rganishdan dalolat beradi.

Ikkinchisi, bir etnik guruh vakillarining nodavlat notijorat tashkilotlarini boshqa xususiyatlarning namoyon bo'lishi bilan birlikda tahlil qilish - ularning ijtimoiy va individual onglari tarkibida turli xil ijtimoiy guruhlarining milliy, sinfiy, kasbiy, yosh xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini to'g'ri tushunishga qaratilgan. Uchinchisi, shaxslarning milliy psixik xususiyatlarining namoyon bo'lishining xilma-xilligini hisobga olish - ularning nafaqat butun majmuasi va o'ziga xosligini har tomonlama tushunish va to'g'ri talqin qilish, balki ularning har birini tizimli tadqiq qilish. To'rtinchisi, nodavlat, notijorat tashkilotlarni, milliy-madaniyat markazlarni tahlil qilishda taqqoslash – etnoo'ziga xoslik faqat boshqa jamoalar vakillarining bir xil xususiyatlari bilan taqqoslash va qiyoslash orqali ma'lum bo'lishiga qaratilganligini inobatga olish.

Geteromillatli oila farzandlaridagi etnik identiklik shakllanishining psixologik jihatlarini tahlil qilish bir necha bor empirik tadqiqot mavzusiga aylangan. Biz tomonimizdan turli millatdagi nikohlar asosida tug'ilgan bolalarda etnik identiklik namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotimiz uch bosqichda o'tkazildi:

1. Aniqlash bosqichi (o'smirlarning etnik identiklikni o'rganish);
2. Shakllantiruvchi bosqich (o'smirlardagi etnik o'ziga xosligini tadqiq etish uchun metodik vositalarni tanlash);
3. Nazorat bosqichi (eksperimental ish natijalarini taqqoslash).

O'smirlarning etnik identikligini o'rganish uchun tadqiqotimiz davomida quyidagilar qo'llanildi: Dj.Finning "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasi, "Etnik identiklik turlari" so'rovnomasi (G.U.Soldatova, S.V.Rijova), O.L.Romanovning "Bolalar va o'smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o'rganish" shkalasi. Yuqoridagi tamoyillarga tayanib, biz tomonimizdan tashkil etilgan tadqiqot mezo darajada olib borilgan bo'lib, unda tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan geteromillatli oilalarning o'smir yoshdagi farzandlari qatnashgan. Quyida berilgan jadval orqali tadqiqotimizda ishtirok etgan obyektlarning qaysi geteromillat vakillari ekanligini bilib olishimiz mumkin.


### 3.1.1.jadval

#### Tadqiqotda ishtirok etgan siniluvchilarning etnik guruhga tegishlilik ko'rsatkichlari

Geteromillatli oilalar	Son	Foiz (%)
O'zbek-qirg'iz oila farzandlari	30 ta	25,0 %
O'zbek-tojik oila farzandlari	30 ta	25,0 %
Qirg'iz-tojik oila farzandlari	30 ta	25,0 %
O'zbek-tatar oila farzandlari	30 ta	25,0 %
Umumiy:	120 ta	100,0 %

Tadqiqotda jami 120 nafar o‘smirlar sinaluvchi sifatida ishtirok etib ularning tanlama to‘plamdagi representativligi to‘liq ta‘minlangan deyishimiz mumkin. Xususan, o‘zbek-qirg‘iz oilasiga mansub o‘smirlar 30 nafar, o‘zbek-tojik oilasiga mansub o‘smirlar 30 nafar, tojik-qirg‘iz oilasiga mansub o‘smirlar 30 nafar, o‘zbek-tatar oilasiga mansub o‘smirlar 30 nafardan iborat bo‘ldi.

### Tadqiqot sinaluvchilarining etnik tarkibi



- O‘zbek-qirg‘iz oila farzandlari
- O‘zbek-tojik oila farzandlari
- Qirg‘iz-tojik oila farzandlari
- O‘zbek-tatar oila farzandlari

3.1.1.rasm. Tadqiqot obyektining foiz hisobida ifodalanishi

Yuqorida berilgan rasm orqali tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarimizning oila vakillari nisbati foiz hisobida keltirilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Unga asosan, 25% o‘zbek-qirg‘iz oilasiga mansub o‘smirlar 25% o‘zbek-tojik oilasiga mansub o‘smirlar 25% tojik-qirg‘iz oilasiga mansub o‘smirlar 25% o‘zbek-tatar oilasiga mansub o‘smirlardan ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

### 3.1.2.jadval

Dj.Finnining “Etnik identiklikni o‘rganish” metodikasining tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili (n=120)

Shkalalar	Min	Max	M	$\sigma$	Assimetriya	Ekzess
Kognitiv komponent	1,00	20,00	10,09	5,68	,214	-1,170
Affektiv komponent	1,00	28,00	12,06	7,51	,644	-,521
Integral ko‘rsatkich	15,00	48,00	30,67	9,77	,069	-1,087

Metodika bo‘yicha olingan natjalardan ma‘lum bo‘ladiki, kognitiv komponent bo‘yicha o‘rtacha qiymat 10,09, standart og‘ish 5,68 ni tashkil etib, chap tarafga manfiy ekzess ko‘rsatkichda ekan. Bundan sinaluvchilar savollarga to‘liq va tushungan holda javob bergan deyish mumkin.

Ushbu metodikaning affektiv komponenti bo‘yicha minimal qiymat ballni, maksimal qiymat 28 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 12.09 ni, standart og‘ish 7.51 ballni, eksess -0,521 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Integral ko‘rsatkich shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 15 ballni, maksimal qiymat 48 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 30.67 ni, standart og‘ish 9.77 ballni, eksess -1,087 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Mazkur yuqorida keltirilgan natijalardan ma‘lum bo‘ladiki, barcha etnik guruhga tegishli o‘smirlarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining integral, ya‘ni umumiy ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu ularning o‘z millatiga daxldorlik hissi yaxshi rivojlanganidan, deya xulosaga kelishga imkon beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

“Oila psixologiyasi” G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov. Toshkent 2007y. 130b.

Abduraxmonova Z. E., Nuraliyeva D. M. Formation of the concept of intelligence in foreign psychology //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 852-857.

Berry J.W., Phinney J.S., Sam D.L., Vedder P. (2006) Immigrant Youth: Acculturation, Identity, and Adaptation. Applied Psychology: an International Review, 55(3): 303–332.

Binning K.R., Unzueta M.M., Huo Y.J., Molina L.E. (2009). The interpretation of multiracial status and its relation to social Engagement and psychological wellbeing. Journal of Social Issues, 65, 35–49.

Волкова А. Н. Социально-психологические факторы супружеской совместимости. -М.: Речь, 1997. - 236 с.

Farver J.M., Xu Y., Bhadha B.R., Narang S., Lieber E. (2007) Ethnic Identity, Acculturation, Parenting Beliefs, and Adolescent Adjustment: A Comparison of Asian Indian and European American

Families. Merrill-Palmer Quarterly, 53(2):184–215.

GiokH. P. «Choose One!»: Challenges of Inter-Ethnic Marriages in Malaysia / Giok Hun Pue & Nidzam Sulaiman. - Asian Social Science. - 2013. - Vol. 9. - No. 17. - P. 269278.

Nuraliyeva D. M. Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities. International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page115-116 . USA Conference Proceedings 2020/6

Nuraliyeva D. M. STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL HELP //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 32-34.

Nuraliyeva D. M. The problems of developing social psychological mechanisms in the family // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 711-713.

Nuraliyeva D. M. THE PROBLEMS OF DEVELOPING SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FAMILY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 711-713.

Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna Psychological assistance to families on the verge of divorce 2021/10 «Экономика и социум» №10(89)

Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna. The concept of psychological service and its controversial issues in family. Stran/34-36 Proceedings of International Conference on Multidisciplinary Sciencesand Innovative Technologies Organized by Novateur Publications, India /2020/6/25.